


“TASDIQLAYMAN”

Komplaens-nazorat va ichki audit  
departamenti deriktori

  
D. Xolmurodov  
“ 8 ” avgust 2025-yil

“TASDIQLAYMAN”

Inson resurslarini boshqarish  
departamenti direktori

  
V. Xamrakulov  
“ 8 ” avgust 2025-yil

2025-yilda Markaziy bank markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari hamda tasarrufdagi korxonalar xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha

DASTUR

T/R	Mavzu	Komponentlar	O‘qitish uchun mas’ullar	Ishtirok etuvchilar	O‘qitish sanasi
<b>Markaziy bankning barcha xodimlari, shu jumladan ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o‘tkazilgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish</b>					
1.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Markaziy bankda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar; Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik. Markaziy bank xodimlarining mehnat shartnomasida belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan majburiyatlar;	Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti	Markaziy apparat xodimlari	2025-yil fevral
			Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalar komplayens-nazorat faoliyatiga mas’ul xodimlari	Hududiy bosh boshqarma va tasarrufdagi korxonalar xodimlari	2025-yil mart

T/R	Mavzu	Komponentlar	O'qitish uchun mas'ullar	Ishtirok etuvchilar	O'qitish sanasi
2.	Markaziy bank tizimi xodimlarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarning oldini olish	O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati hamda barcha xodimlar amal qilishi lozim bo'lgan majburiyatlar;	Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti	Markaziy apparat xodimlari	2025-yil mart, noyabr
			Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalar komplayens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlari	Hududiy bosh boshqarma va tasarrufdagi korxonalar xodimlari	2025-yil aprel, dekabr
3.	Markaziy bankda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlar talablari	Markaziy bankning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati; Markaziy bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risida Tartib; Markaziy bank tizimida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, odob-ahloq va ichki mehnat tartibi qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha Reglament.	Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti	Markaziy apparat xodimlari	2025-yil oktabr
			Hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalar komplayens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlari	Hududiy bosh boshqarma va tasarrufdagi korxonalar xodimlari	2025-yil noyabr

T/R	Mavzu	Komponentlar	Ishtirok etuvchilar	O'qitish uchun mas'ullar	Ishtirok etuvchilar	O'qitish sanasi
<b>Markaziy bankning barcha xodimlari uchun etik xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish</b>						
4.	Markaziy bank xodimlarining Odob-ahloq va ichki mehnat tartibi qoidalari	<p>Kasbiy madaniyatga, xizmat faoliyatiga, xizmatdan tashqari umumiy odob-axloq qoidalari;</p> <p>Jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalari;</p> <p>Xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalari;</p> <p>Xodimlarning manfaatini himoya qilish;</p> <p>Odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish hamda rioya etmaganlik uchun javobgarlik;</p> <p>Mehnat shartnomasini tuzish, uni o'zgartirish va bekor qilish tartibi, mehnat shartnomasini tuzuvchi tomonlarning burchlari;</p> <p>Mehnat intizomini ta'minlash;</p> <p>Ish vaqti, dam olish vaqti va ulardan foydalanish.</p>		<p>Inson resurslarini boshqarish departamenti</p> <p>Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti</p>	Markaziy apparat xodimlari	2025-yil may
				<p>Hududiy bosh boshqarmalari, tasarrufidagi korxonalar kadrlar bilan ishlash va komplayens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlar</p>	Hududiy bosh boshqarma va tasarrufdagi korxonalar xodimlari	2025-yil iyun
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishiga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish</b>						
5.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy masalalari	O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Huquqni muxofaza qilish akademiyasi va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv-seminarlarda ishtirok etish.		Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti Agentlik bilan hamkorlikda	Komplayens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlar	2025-yil doimiy

T/R	Mavzu	Komponentlar	O'qitish uchun mas'ullar	Ishtirok etuvchilar	O'qitish sanasi
6.	Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi xorij tajribasini o'rganish	Xalqaro miqyosda tashkil etiladigan xorijiy o'quv-seminarlarda ishtirok etish. Xorijiy Markaziy banklarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi tajribasini o'rganish.	Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti, Xalqaro hamkorlik departamenti, Inson resurslarini boshqarish departamenti	Komplayens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlar	2025-yil doimiy
<b>Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish</b>					
7.	Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlar talablari bo'yicha maxsus o'qitish	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti; Manfaatlarni to'qnashuvini aniqlash va boshqarish to'g'risida Nizom; Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o'rganish to'g'risida Yo'riqnoma; Kontragentlarni o'rganishga oid Yo'riqnoma; Markaziy bank tizimida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, odob-ahloq va ichki mehnat tartibi qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha Reglament.	Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti Hududiy bosh boshqarmalari, tasarrufidagi korxonalar komplayens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlari	Korrupsiyaviy xavf-xatar baholash natijalariga ko'ra "o'rta", baholangan tarkibiy bo'linmalar xodimlari	2025-yil Iyul 2025-yil Avgust



T/R	Mavzu	Komponentlar	O'qitish uchun mas'ullar	Ishtirok etuvchilar	O'qitish sanasi
8.	Markaziy bank tizimiga yangi ishga qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish	<p>Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari;  O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati;  Markaziy bank xodimlarining mehnat shartnomasida belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan majburiyatlar;  O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risida Tartib.</p>	<p>Komplayens-nazorat va ichki audit departamenti  Hududiy bosh boshqarmalar, tasarrufidagi korxonalar</p>	<p>Markaziy bank tizimiga yangi ishga kirgan xodimlar uchun</p>	<p>2025-yil doimiy  (xodim ishga qabul qilingandan so'ng bir oy muddat ichida)</p>

*Dunay*